



2017-2018 YILLARDA SODIR ETILGAN AVTOAVARIYALAR, ULARDAN O'LIM VA JAROHATLANISH KO'RSATKICHLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Jumaniyozov K.Y., Olimova M.M.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urgench filiali

Xorazm, Urgench

Kirish. Barcha sohalar kabi mamlakatimizda avtomobil transporti va kommunikatsiyalari ham rivojlanib bormoqda. Bunday o'zgarishlar aholining ijtimoiy rivojlanishi darajasi bilan bog'liq muammoning eng ayanchlisi insonlarning jismoniy talofat olishlaridir. Bu esa jamiyatimizning ijtimoiy muammosidir.

Tadqiqot maqsad. Xorazm viloyatida 2017-2021 yillar davomida sodir etilgan YTH, ulardan o'lim va jarohatlanish ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganish hamda baholashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Xorazm viloyati yo'l patrul xizmatining 2017-2021 yillar bo'yicha avtohalokatlar to'g'risidagi hisobotlarida qayd etilgan ma'lumotlar doirasida o'rganildi. Olingan ma'lumotlarni statistik taxlil qilishda ijtimoiy-gigienik va sanitariya statistik usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Xorazm viloyatida jami 5 yil davomida 1343 ta YTH sodir etilgan. Ushbu sodir etilgan yo'l transport hodisasidan 420 nafar insonlar hayotdan ko'z yumgan va 1067 nafar insonlar turli tarzdagi tan jarohati olganlar.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki eng ko'p YTH 2021 yilda sodir bo'ldi $335 \pm 1,16\%$ u 5 yil davomida sodir bo'lgan YTH 25% ni tashkil qildi va eng kam YTH 2019 yilda sodir bo'ldi $242 \pm 1,04\%$ va u 5 yilda sodir bo'lgan YTH 18% ni tashkil qildi. Eng ko'p YTH laridan o'lganlar 2017 yilda sodir bo'ldi $94 \pm 2,02\%$, eng kam YTH laridan o'lganlar 2019 yilda sodir bo'ldi $78 \pm 1,89\%$. Eng ko'p YTH laridan jarohatlanganlar 2021 yilda sodir bo'ldi $272 \pm 1,80\%$ va u 5 yilda sodir bo'lgan YTH larining 25,5% ni tashkil qildi. Eng kam YTH laridan jarohatlanganlar 2019 yilda sodir bo'ldi $192 \pm 1,17\%$ va u 5 yilda sodir bo'lgan YTH larining 17,9% ni tashkil qildi.